MIRZO ULUG'BEK KO'RAGONIY IS A TALENTED POET

Khojamova is the daughter of Zarnigor Erkinjon
State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

Abstract: *In this article, the incomparable contribution of Timurid prince Mirza Ulugbek to world science is highlighted. His noble deeds, researches, and policies as a scientist and a king have a worthy place and influence not only in Uzbekistan, but also in the world.*

Key words: *Astronomy, observatory, observatory, catastrophe, treatise, madrasah, mudarris, hujra.*

МИРЗО УЛУГБЕК КО'РАГОНИ - ТАЛАНТЛИВЫЙ ПОЭТ

Ходжамова — дочь Зарнигора Эркинжона
Государственный институт искусства и культуры Узбекистана

Аннотация: *В данной статье освещается несравненный вклад тимуридского князя Мирзы Улугбека в мировую науку. Его благородные дела, исследования и политика как ученого и царя имеют достойное место и влияние не только в Узбекистане, но и в мире.*

Ключевые слова: *астрономия, обсерватория, обсерватория, катастрофа, трактат, медресе, мударри, худжра.*

SHAHRIYORI FALAK IQTIDOR MIRZO ULUG’BEK KO’RAGONIY

Xo’jamova Zarnigor Erkinjon qizi
O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institute

Annotatsiya*: Ushbu maqolada temuriy shahzoda Mirzo Ulug’bekning dunyo ilm-faniga qo’shgan beqiyos hissasi yoritib berilgan. Uning olim va shoh sifatida amalga oshirgan ezgu ishlari, izlanishlari, olib brogan siyosati nafaqat O’zbekistonimiz, balki, jahonda ham munosib o’rni va nufuziga egaligi bu maqolada qisqacha bayon etilgan.*

Kalit so’zlar: *Astronomiya, rasadxona, observatoriya, falakiyot, risola, madrasa, mudarris, hujra.*

Buyuk astronom va matematik, yulduzshunos olim, tarix sahnasida o’zining nodir asarlari bilan shuhrat topgan va bizga boy ilmiy meros qoldirgan temuriyzoda shoh Mirzo Ulug’bek 1394-yilning 22-mart kuni Sultoniya shahrida tavallud topgan. Asl ismlari Muhammad Tarag’ay bo’lib, o’zi hayotlik chog’idayoq Ulug’bek taxallusi bilan tanilgan.

Mirzo Ulug'bekning kamol topishida bevosita bobosi Amir Temur, otasi Shohruh, kata onalari Saroymulkxonim va otalig'i Shohmalikning xizmatlari katta. Mirzo Ulug'bek haqida biz Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", Bo'riboy Ahmedovning "Mirzo Ulug'bek" badiasi hamda Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi orqali yaxshi taniymiz. Bu asarlarda olim yuksak ehtirom va muhabbat bilan tasvirlangan. Mirzo Ulug'bek haqida yozilgan barcha asarlarda Ulug'bek siymosi Temuriyzodalarga xos yuksak g'urur, salohiyatli davlat arbobi, mehribon ota va rahmdil podshoh sifatida talqin etilgan. Darhaqiqat, Mirzo Ulug'bek davlatni 40 yil boshqardi. Davlat boshqaruvi va ilmiy jarayonni birday olib brogan podshoh zamonida Movaraunnahr diyori gullab yashnagan va ilm-fan yuksak darajada rivojlangan. Mirzo Ulug'bek Movaraunnahrda katta islohotlarni amalga oshirgan. Shuningdek, Samarqand observatoriyasiga yirik astronom va matematik olimlar jamlangan. Rasadxonada Ulug'bek bilan birga mashhur matematik va astronomlardan "Aflotuni zamon" deb nom olgan mavlono Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy hamda "O'z davrining Ptolemeyi" nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi va boshqa ko'pgina olimlar ilmiy kuzatish va tadqiqotlar olib borganlar.

Meni shu narsa qiziqtirdiki, nega olimlardan Qozizoda Rumiy "Aflotuni zamon" (o'z davrining Aflotuni), Ali Qushchi esa "Batlimusi zamon" (o'z davrining Ptolemeyi) deb ulug'langan. Qozizoda Rumiyning Aflotunga, Ali Qushchining Ptolemey(Platon)ga qanday o'xshash jihatlari bor?

Aflotun g'arb falsafasining asoschisi, buyuk yunon faylasufi. U matematika va astronomiya haqida qimmatli asarlar yozib qoldirgan. Qozizoda Rumiy esa matematika va astronomiyani chuqur o'rgangan hamda Ulug'bek madrasasida ushbu fanlar bo'yicha ma'ruzalar o'qigan. Rumiy shu sohalarda erishgan muvaffaqiyatlari uchun shunday nom bilan ulug'langan.

Ptolemey buyuk falakiyotchi olim, matematik, geograf bo'lgan. Ptolemey barcha yunon astronomiyasining so'nggi buyuk vakili sifatida ajralib turadi. Ptolemey astronomiyaga va boshqa sohalarga oid bir nechta asarlar yozgan. Ptolemey asarlari sharqda astronomiya va matematika rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ali Qushchining buyuk falakiyotchi olim Ptolemeyga taqqoslashgani bejiz emas, albatta.

Mirzo Ulug'bek "Ziji jadidi Ko'ragoniy" (Ko'ragoniyning yangi astronomic jadvali), "Tarixi arba'ulus" (To'rt ulus tarixi) nomli tarixiy asari, "Bir gradus sinusini aniqlash haqida risola" (bu asar Qozizoda Rumiyning asari deb ham taxmin qilingan), yulduzlarga bag'ishlangan "Risolai Ulug'bek" hamda musiqa ilmiga bag'ishlangan beshta risola yozgani ham ma'lum. Mirzo Ulug'bekning asarlariga nazar tashlaydigan bo'lsak olimning asarlari orasida "Tarixi arba'ulus" (to'rt ulus tarixi) asari alohida ajralib turadi. Bu asar "Ulus-a arbayi-yi Chingiziy" (Chingiziylarning to'rt ulusi) nomi bilan ham mashhur. To'rt ulus tarixi asari Mirzo Ulug'bekning ilmiy rahbarligi va shaxsan ishtirokida yaratilgan. Asar 1425-yili yozib tamomlangan. Asar haqida kitobxonlarning fikri turlicha. Ma'lumotlarga qaraganda, asar yeti bobdan iborat. Muqaddima o'rta asrlarda yaratilgan tarixiy asarlar an'anasiga ko'ra, Alloh va uning elchisi Muhammad (s.a.v.) va uning avlodlari sha'niga maqtov, Odam

ato, payg'ambarlar, ularning farzandlari tarixi bayon qilinadi. Har bir bobda biron xon yoki muayyan tarix hikoya qilinar ekan, albatta, Mirzo Ulug'bek oddiy bayonchilikdan qochadi, kitobxonni jalb qilish maqsadida avvalo, asar uslubiga badiiy jilo beradi va yana ma'lum tarixiy voqealar yoki qahramonlarga ta'rif berish maqsadida she'riy parchalar ham keltiradi. Umuman, asarda Mirzo Ulug'bek bu asarni yaratish bilan ijodkorlik mahoratini namoyon qilgan. Mirzo Ulug'bek asarlari haqida so'z so'z borar ekan, olim Bartold bu haqida shunday degan: Ulug'bek va unga safdosh olimlar turkiy tilda gaplashsalarda ilmiy asarlarini fors va arab tillarida yozishgan. Ulug'bek o'z asarida aniq fanlar, nafaqat mahalliy, balki xalqaro ahamiyat kasb etishi uchun urinadi va ularning adabiy hamda ilohiyotga doir asarlardan ustunliginishunday ko'radiki, bir til va din boshqasiga almashinuvi aniq fanlar qiymatini o'zgartira olmaydi.

Shuningdek, Mirzo Ulug'bek yuksak salohiyatli va madaniyatli shoh bo'lgan. Olim arab va fors tillarini yaxshi bilgan hamda she'rlar ham yozib turgan. Olim Bartoldning yozishicha, Sakkokiy, Lutfiy Ulug'bekning shoirlik mahoratini yuqori baholaganlar, ba'zi she'rlarini Durbek nomi bilan bitgan degan taxminnlar ham bor. Jamoa tomonidan yozilgan "Temur va Ulug'bek davri tarixi" asarida berilishicha, Ulug'bek rasadxonasining qoshida zamonasining eng boy kutubxonasi tashkil etilgan. Bu kutubxonada deyarli hamma fan sohalariga tegishli qariyb 15 ming jild kitob to'plangan. Taxminlarga qaraganda, Ulug'bek yig'gan kitoblar xazinasi Pergam qo'lyozmalaridan boshlangan. Bunga sabab bobosi Amir Temur Pergam shahrini bosib olganda qo'lyozmalarni ham karvon bilan olib kelishgan. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" asarida keltirilishicha, Ulug'bek kutubxonasida Platon, Gippokrat, Ptolemey va Aristotelning asarlari to'plangan. Bundan tashqari vatandoshlarimizdan buyuk olim Muso al-Xorazmiyning 6 jildlik asarlari, Abu Ali ibn Sinoning 20 jildlik "Kitob ush-shifo" asari va yana 10 jildlik "Kitob un-najot" hamda 3 jildlik she'riy asarlari, Abu Rayhon Beruniyning "Al-Qonun al-Ma'sudiy", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Astronomiya kaliti" asarlari, shuningdek, Marvaziy, Ahmad al-Farg'oniy, Abul vafo as-Samarqandiy, munajjimlar G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, Nosiruddin Tusiy hamda Qozizoda Rumiyning purhikmat asarlari to'plangan.Kabonov va Shoxurinning ma'lumot berishicha, "Shu kunlarga qadar Ulug'bek kutubxonasi haqidagi afsona yetib kelgan va unga ko'ra go'yo Ulug'bek vafotidan so'ng shogirdi Ali Qushchi bu kitoblarni sirli ravishda Samarqanddan olib chiqib ketgan, hattoki bu kitoblar Qashqadaryo hududidagi Hazrat Boshir qishlog'ida bo'lsa kerak deganlar ham bor. Biroq, arxeologlar bu qishloqdan hech narsa topolmagan". Fikr o'rnida Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" asarida kitoblar "Ajdar g'or"ga yashirilgan degan fikrlar bayon etilgan. Albatta asarda bu holat badiiylashtirilgan.

Temuriylar davrida ilm-fan rivoji ayniqsa madrasalar bilan bog'liq. Madrasalar yosh avlodga ziyo tarqatuvchi ilmgoh bo'lgan. Mirzo Ulug'bekning farmoni bilan 1417-yili Buxoroda, 1420-yili Samarqandda, 1433-yilda G'ijdivonda madrasalar qad ko'targan. Hattoki, Buxoro madrasasining darvozasiga "Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning

burchidir” degan xitobnoma o’yib yozilgan. Yoshlarning bilim olish masalasi Mirzo Ulug’bek faoliyatida muhim o’rin tutganligini bu xitobnomada ko’rishimiz mumkin.

Madrasalar ichida eng mashhuri Samarqand madrasasi bo’lgan. 1420-yilda ochilgan bu madrasa ikki qavatli va ellik hujrali bo’lgan. Har bir hujra uch xonaga: qaznoq(omborxona), yotoqxona, darsxonalarga bo’lingan. Madrasada o’sha zamonning taniqli va iqtidorli olimlaridan Shamsiddin Muhammad Xavofiy madrasaning yetakchi mudarrisi bo’lgan. Bundan tashqari mashhur olimlar qozizoda Rumiy, G’iyosiddin Jamshid Koshoniy, Mirzo Ulug’bek va uning shogirdi Alouddin Ali Qushchilar turli fanlardan dars berishgan. Madrasa ochilgan kun birinchi darsni mudarris Shamsiddin Muhammad Xavofiy o’qigan, darsda tolibi ilmlardan 90 nafari qatnashgan. Madrasada astronomiyadan darsni Qozizoda Rumiy bergan. Madrasada kamida 15-16 yil tehsil ko’rib, dastur bo’yicha fanlarni to’la o’zlashtirgan hamda imtihonlarda bilimlarini namoyish qilgan talabalarga “Sanad” (shahodatnoma) yozib berilgan.

Mirzo Ulug’bek bor-yo’g’i 55 yil umr ko’rsada o’zidan boy ilmiy meros qoldirib, ilm-fanga unutilmas xizmat ko’rsatdi. Mustaqillikka erishganimizdan so’ng ko’plab ajdodlarimiz singari Mirzo Ulug’bekning ham xotirasini abadiylashtirishga oid keng ko’lamli islohotlar amalga oshirildi. 1991-yilda Ulug’bek nomidagi xayriya jamg’armasi tashkil etildi. 1992-yili Poytaxtimiz Toshkent shahrining yirik tumanlaridan biriga Mirzo Ulug’bek nomi berildi. O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi qoshida Mirzo Ulug’bek haykali qad rostladi. 1994-yilni hukumat qarori bilan mamlakatimizda “Ulug’bek yili” deb e’lon qilinishi, tavalludining 600 yilligini O’zbekistonda va Jahon miqyosida, xususan, YuNESKO qarorgohi Parijda keng nishonlanishi ham Mirzo Ulug’bek qoldirgan meros umuminsoniy qadriyatga aylanganligining nishonasidir. Toshkentda Mirzo Ulug’bek tavalludining 600 yilligiga bag’ishlangan “Mirzo Ulug’bek va uning jahon taraqqiyotiga qo’shgan hissasi” mavzusida Xalqaro ilmiy konferensiya o’tkazildi. Zero, Mirzo Ulug’bek siymosi qalbimizda abadiy yashaydi. Mirzo Ulug’bek avlodlar xotirasida ibrat va faxr tuyg’ulari bilan tilga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov B. Mirzo Ulug’bek. – 2-badiasi, tuzatilgan va to’ldirilgan nashri. – Toshkent: Fan, 1994. – 288 bet.

2. Temur va Ulug’bek davri tarixi/ o’quv qo’llanma/ - Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996. –262 bet.

3. Yoqubov O. Ulug’bek xazinasi/ tarixiy roman/ Abadiy barhayot asarlar turkumi/ - Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – 368 bet.